

**SOG'IM SIGIRLAR LAKTATSIYA DAVRIDA SIGIRLARNING
RATSIONIDA ODDIY XLORELLA (*CHLORELLA VULGARIS*)
O'SIMLIKIDAN TABIIY DORIVOR BIOLOGIK FAOL MODDA IMMUN
TIZIMINING TIKLANISHI VA GEMOPOEZGA TA'SIRI.**

Teshajonova Maxliyoxon Marufjon qizi.

Farg'ona Davlat universiteti.

mteshajonova@gmail.com

Kirish. Insonlar uzoq vaqtdan beri tabiatda yangi o'simlik va hayvon turlarini qidirib topib, ularni iqtisodiy maqsadlarda qo'llashga kirishib kelishgan. Yangi o'simlik navlari yaratilib, "madaniy o'simliklar" tushunchasini keltirib chiqargan bo'lsa-da, butun bir sanoat - texnik mikrobiologiya rivojlanib, bakteriyalar va mikroskopik zamburug'larning faolligidan foydalanib, qimmatli moddalarni ajratib oldi. Nisbatan yaqin vaqtgacha mikroskopik suv o'tlarining, ayniqsa bir hujayrali suv o'tlarining keng dunyosi inson amaliy faoliyati doirasidan tashqarida qoldi. Mikrosuv o'tlari nihoyat yaqindan o'rganish mavzusiga aylanganda va ularni kerakli birikmalarning noyob ishlab chiqaruvchilari sifatida ommaviy yetishtirish masalasi paydo bo'lganda, ***Chlorella vulgaris*** eng mos variant bo'lib chiqdi.

Tajribalar davomida sog'im sigirlar laktatsiya davrida sigirlarning ratsionida oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simlikidan tabiiy dorivor biologik faol moddadan foydalanish qo'rib chiqildi. Laboratoriyada olib borgan tajribalar immun tizimining tiklanishi va gemopoezdagi ko'rsatkichlarning yaqqol oshganligini namoyon bo'lganligi sababli bu oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simligidan tabiiy dorivor biologik faol moddalar sog'im sigirlar laktatsiya davrida sigirlarning ratsioniga ozuka sifatida foydalanish tajribalar olib borildi. Tajribalar Kibray tumanidagi "Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti" qoshilagi fermer xujaligida olib borildi. Buzoqchalar ikkita gruxga ajratilib 10 tadan taqsimlandi. Birinchi gurux qoramollarga oddiy fiziologik eritma yuborilgan bo'lsa, ikkinchi gurux sigirlarga esa oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simligi eritmasi 0,5 %, 3 gruxga esa oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simligi eritmasi 0,2 % 30 kun davomida yuborildi. Asosiy ko'rsatkichlar fiziologik va immunologik taxlillar olib borildi. Tajriba shuni ko'rsatdiki oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simligi eritmasi gurux sigirlarida T va V lifotsitlar miqdori normadan ancha past ekanligi kuzatilgan bo'lsa, oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simligi eritmasi yuborilgandan keyin ularning miqdori ishonchli oshganligi kuzatildi. Oddiy xlorella (***Chlorella vulgaris***) o'simligi eritmasi yuborilgandan keyin limfotsitlar soni 1,5; 2,5 ($p \leq 0,05$) i 4,1 % ($p \leq 0,05$) keskin nazorat xayvonlariga nisbatan oshdi. T-lifotsitlar mikdori 1,3 % dan 3,1 %gacha ko'tarildi. V- limfotsitlar esa nazoratga nisbatan 26,4 yani 1,5% ($p \leq 0,05$),ga oshganligi, undan tashkari T-

xelperlar miqdori esa 19,3ta yani 1,5 ($p \leq 0,05$) i 0,5 % ga oshganligi kuzatildi. Killer – supressorlar miqdori esa birichi guruxga karaganda II-III go‘ruhlarda 1,6 ($p \leq 0,05$); 2,6 ($p \leq 0,05$) i 2,4 % ($p \leq 0,05$) keskin kamayganligi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, immun xujayralarining oddiy xlorella (*Chlorella vulgaris*) o‘simligi eritmasi yuborilgandan V- limfotsitlar soni keskin oshishini va T-xelperlar miqdorining nazoratga nisbatan bir necha bor oshganligi, T- killer – supressorlar sonining nazoratga nisbatan bir xilda saqlanib yoki pasayganligi kuzatildi. Antropometrik ko‘rsatkichlari esa buzoqchalarda 0,5% va 0,2% li peptid bog‘lamli biostimulyatorlar yuborilgan sigirlarda 51 kg. dan to 57 kg. gacha va eng yukori ko‘rsatkich 62 kg. ni tashkil etdi. Bu olingan natijalar esa oddiy xlorella (*Chlorella vulgaris*) o‘simligi eritmasi immun tizim xujayralarining aktivligini oshirishi balki tana vaznining oshishiga xam olib kelishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Богданов, Н. Хлорелла – нетра диционная кормовая добавка // Корм ление сельскохозяйственных животных и кормопроизводство. – 2007. – № 4. – С. 12.
2. Дудина Ю.А., Калашникова Е.А., Киракосян Р.Н. Создание фото биореактора для эффективного роста хлореллы и изучение влияния спектрального состава света на ее биомассу. Тимирязевский биологический журнал. 2023;15-22.
3. Кахоров, Б. А., Расулова, С. Л., Хаитова, Ф. Б., Тухтаева, Е. И., & Катаева, Ю. А. (2023). Влияние на иммунную систему биостимуляторов из пептидных соединений при экспериментальном гепатите.
4. Kayumov, K., Kuchkarova, L., & Kakhorov, B. (2021). Etiology of Pancreatitis and Rutin Treatment of the Disease. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 585-589.